

**JAMOAT XAVFSIZLIGIDA HUQUQNING O'RNI. JAMOAT XAVFSIZLIGI
KONSEPSIYASI" NING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Komilov Lazizjon Zokirjon o'g'li

IIV Malaka oshirish instituti

"Jangovar tayyorgarlik" sikli o'qituvchisi, kapitan.

Barchamizga ma'lumki, shaxs, jamiyat va davlat maqomining hozirgi holati vujudga kelguniga qadar ko'plab o'zgarishlar, inqiloblar sodir bo'lgan. Dastlab, jamiyat taraqqiyotida avtoritar boshqaruvgaga asoslangan hokimiyatning samaradorligi yuqori bo'lgan bo'lsa, XVIII asrdan boshlab dunyo mamlakatlari tomonidan asta-sekin xalq hokimiyatchiligiga asoslangan demokratik boshqaruvtizimiga o'tish harakatlari boshlandi. Ikkinchagi jahon urushidagi avtoritar rejimdan ham qattiqroq hisoblangan totalitar rejimdagi yirik davlatlarning mag'lubiyati dunyo mamlakatlarining demokratik tizimga o'tish jarayonini misli ko'rilmagan darajada tezlashtirib yubordi. Ushbu jarayon Sobiq Ittifoq qulaganidan so'ng, o'z ta'sirini postsoviet mamlakatlariga ham o'tkazdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunga kelib, dunyodagi demokratik davlatlar soni 166 tani tashkil qilayotganligini ko'rishimiz mumkin [1].

Tabiiyki, demokratik tizimda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari va ular o'rtasidagi munosabat qonunlar va qonunosti hujjatlar orqali tartibga solinadi. Qonun deganda, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasini tushunish maqsadga muvofiqdir. Qonunlar o'zida mujassamlashgan normalarning mohiyati bo'yicha konstitutsiyaviy, to'g'ridan-to'g'ri konstitutsiya talablari asosila qabul qilinadigan (organik) va oddiy qonunlarga bo'linadi. Oddiy qonunlar, o'z navbatida, kodifikatsiya qilingan va joriy qonunlarga bo'linadi [2]. Kodifikatsiya qilingan qonunlarga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi kodekslarini kiritishimiz mumkin. Kodeks (lotincha - "codex", "kitob") bu - ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir turdag'i sohasini tartibga soluvchi sistemalashtirilgan yagona qonun hujjati hisoblanadi [3]. Joriy qonunlar esa, Konstitutsiya asosida qabul qilinib, xo'jalik ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-madaniy sohalardagi munosabatlarni tartibga soladi [4]. Yuqorida keltirilgan manbalardagi fikrlarni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchidan, kodeks bilan joriy qonunlarning farqi, kodeksdagi normalar yagona yaxlit hujjat markazida jamlanadi va tartibga solish munosabatlari joriy qonunga nisbatan kattaroq. Ikkinchidan, kodeksdagi normalar joriy qonundagi

normalarga nisbatan klassik xususiyatga ega. Klassik so‘zining ma’nosiga “doimiy qiymatga ega yoki abadiy sifatga ega bo‘lgan narsa, birinchi yoki eng yuqori sifat, sinf yoki daraja” deya ta’rif berilishini inobatga olsak, kodeksdagi normalar joriy qonundagi normalarga nisbatan turg’unroq hamda makon va zamondan qat’iy nazar o‘zining dolzarbligini namoyon etadi [5]. Amalda ham ko‘p kuzatishimiz mumkinki, joriy qonunlarda kodeksga nisbatan ko‘proq o‘zgartirish holatlari kuzatiladi. Joriy qonunlar jamiyatning hayotiy faoliyatini hisobga olgan holda vaqtı-vaqtı bilan moslashtirib turiladi. Jamiyatdagi qonunlarning ijrosi farmon bilan mustahkamlanadi.

Jamoat xavfsizligi sohasidagi tarixga nazar soladigan bo‘lsak, Sobiq Ittifoq davrining so‘nggi yillarda mehnat qilish sohasining samarali tartibga solinganligi ya’ni ishsizlik koeffitsentining nihoyatda pastligi mutasaddi tashkilotlarga jamoat xavfsizligi va tartibini saqlash jarayonini bir muncha yengillashtirgan bo‘lsa, iqtisodiy tanazzul, millalatlaro nizolar, ko‘chadagi bezorilik guruhlarining ko‘payib ketishi va tarmoqlanishi jarayoni jamoat xavfsizligini ta’minalash faoliyatining normal davom etishiga jiddiy putur yetkazdi. 1991-yilda Sobiq Ittifoq barham topgach, O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiatida mustaqil davlat sifatida qaytadan gavdalandi. Davlat boshqaruvi nodemokratik tizimdan demokratik tizimga o‘tishi jarayoni huquq tizimini tubdan isloh qilishni nazarda tutardi. Chunki, huquqiy tizim davlat – jamiyat – shaxs algoritmidan shaxs – jamiyat – davlat algoritmga o‘tdi. Mustaqillikning dastlabki yillarda iqtisodiy o‘nglanish, chegaralar daxsizligi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, hokimiyat legitimligi kabi konseptual masalalar xususida keng ko‘lamlı islohotlar amalga oshirildi. Jamoat xavfsizligi faoliyati yuqoridaagi katta ahamiyatli xavf keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan masalalardan muhofaza etilgach, ushbu faoliyatni yanada mustahkamlash maqsadida jamoat xavfsizligi sub‘yektlarining faoliyatiga chuqurroq e’tibor berildi. Sharhanayotgan hodisalar 1999-yillarga borib taqaladi. Aynan, 1999-yil 12-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minalash Konsepsiysi to‘g’risida”gi qarori qabul qilindi. Qaror asosida respublikada tinchlik va osoyishtalikni saqlash, mustaqilligimizni asrash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minalash tizimida tub islohotlarni amalga oshirish zamon talabi asosida modellashtirildi, ichki ishlar organlarining asosiy kuch va vositalari bevosita aholi yashaydigan turar joylarga yo‘naltirildi. 2001-yilda Toshkent shahrida 444ta mahallaning barchasida militsiya tayanch punktlari tashkil etilib, ularda 1200ga yaqin profilaktika inspektorlarining faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Qaror bilan Toshkentda ichki ishlar

organlarining patrul-post va profilaktika xizmatlarining tizimi va tuzilishida bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida Toshkent shahrida militsiya tayanch punktlari tashkil etilib, 2500-3000 kishiga bir nafar profilaktika inspektori xizmat ko'rsata boshladi. Tez orada bu borada qilingan ishlar o'z samarasini bera boshladi [6]. Zero, ushbu konsepsiya mazmun jihatdan faqat Toshkent shahridagi jamoat tartibini va xavfsizlikni ta'minlash faoliyatini qamrab olgan edi. Bu davrda O'zbekiston miqyosida jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini tartibga solish bilan bog'lq huquqiy bo'shliq qonunchiligidan mavjud edi. Misol qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida jamoat xavfsizligi bilan bog'lq normativ-huquqiy hujjatlar izlanganida dastlabki hujjat 2017-yilda ishlab chiqilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin [7].

Ikkinci ma'muriyat davrida jamoat xavfsizligi sohasiga alohida e'tibor qaratildi va qaratib kelinmoqda. Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi faoliyatini tartibga solish va huquqiy bo'shliqlarni to'ldirishda salmoqli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ko'plab huquqiy munosabatlар tartibga solinmoqda, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Endilikda, jamoat xavfsizligi faoliyatini tartibga solishda amal qilinadigan asosiy huquqiy hujjatlardan biri, ya'ni "Jamoat xavfsizligi konsepsiysi" xususida so'z yuritish maqsadga muvofiq. Konsepsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, (lot. conceptio — majmua, tizim) — degan ma'noni bildirib, biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarini tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar, deya ta'rif berilmoqda [8]. 2021-yil 29-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-sون Farmoni imzolandi. Ushbu Farmonning 1-ilovasini "Jamoat xavfsizligi konsepsiysi" tashkil etadi. "Jamoat xavfsizligi konsepsiysi" – O'zbekiston Respublikasida milliy xavfsizlikning asosiy yo'nalişlaridan biri hisoblangan jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosatini belgilovchi muhim hujjat hisoblanadi [9]. Ushbu hujjat qabul qilinguniga qadar jamoat xavfsizligi sohasi abstrakt soha hisoblangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Abstrakt deyishimizga sabab, ushbu soha jamoat xavfsizligi o'zi nima?, shu sohaning davlat tomonidan tartibga solinishi qanday amalga oshiriladi?, sohani amalga oshirish mexanizmlari qanday? degan savollarga ehtiyoj sezar edi. Jamoat xavfsizligida "xavfsizlik" so'zi mavjud bo'lganligi uchun umumiylar tarzda talqin qilingan. Nazarimizda, hozirda ushbu Konsepsiya sohaning asosiy negizini tashkil qilmoqda. "Jamoat xavfsizligi konsepsiysi" ning joriy etilishi jamoat xavfsizligi sohasida

“jamoat xavfsizligi”, “jamoat xavfsizligini ta’minlash” atamalari, jamoat xavfsizligidagi milliy manfaatlar nimalardan iboratligi, jamoat xavfsizligini ta’minlashda davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatidagi asosiy tamoyillar, davlat tomonidan tartibga solinishi kabi munosabatlarni tartibga solish orqali yutuqlarga erishishga turtki bo‘ldi. Konsepsiyaning e’tirof etiladigan jihatlaridan yana biri – bu shubhasiz, sohaning mutasaddi davlat organlari o‘rtasida taqsimlanganligidir. Jamoat xavfsizligi sohasi qamrab olish jihatdan keng munosabatlarni tartibga soladi. Shuni hisobga olgan holda, ushbu Konsepsiya bilan soha 11 ta sub'yektga funksional majburiyatlar orqali taqsimlandi. Ushbu Konsepsiya qabul qilingungacha bo‘lgan davrda jamoat xavfsizligi sohasi, asosan, Ichki ishlar organlariga zimmasida bo‘lgan hamda qamrab olish jihatdan keng munosabatlarni tartibga solganligi tufayli sifat jihatdan yuqori natijalarini qayd etilishida ayrim to‘sqliarga uchragan. Shuningdek, Konsepsiyaning 4-bobi, ya’ni, Konsepsiyanı amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar yo‘nalishining tatbiq etilishi, Konsepsiyaning dialektik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu degani, jamoat xavfsizligi sohasidagi qonunchilik takomillashtirib boriladi, bo’shliq va ziddiyatlar bartaraf etiladi, sohaning shaffofligi va oshkoraligi koeffitsenti ortib boradi, tinchlik va osoyishtalik darajasi ortib boradi, faoliyatni tashkil etishning zamonaviy usullaridan foydalaniлади.

Xulosa o‘rnida shu aytib o‘tish joizki, Konsepsiyanı amalga oshirishning pirovard natijasi jamoat xavfsizligini, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimini samarali tatbiq etish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlashning ishonchli va samarali mexanizmlarini joriy etish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] <https://wisevoter.com/country-rankings/most-democratic-countries/>.
- [2] [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qonun_\(huqua\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qonun_(huqua)).
- [3] <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kodeks>.
- [4] <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqlilish-kursishi/item/13306-huqua-jodkorligini-amalga-oshirish-va-sharhlash>.
- [5] <https://www.dictionary.com/browse/classic>.
- [6] Matlyubov B.A. O‘zbekistonda jamoat tartibi va xavfsizlikni ta’minlash tarixi (Ichki ishlar organlari misolida): Monografiya / – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2021 y. – 347 bet.
- [7] <https://lex.uz/ru/search/all?searchtitle=jamoat%20xavfsizligi;>

[8] <https://uztext.com/84483-text.html>

[9] 2021-yil 29-noyabr kunidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni.